

TAJRIBA-SINOV TAVSIFI VA MATERIALLARI

Xaydarova Moxinur Begmurod qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1393618>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tajriba-sinov tavsifi va materiallari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola davomida yozma nutqning o'ziga xos tomonlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tajriba-sinov tavsifi, yozma nutq, sifat, tekshirish, tuzatish, takomillashtirish.

DESCRIPTION AND MATERIALS OF THE EXPERIMENT

Abstract. This article talks about the description and materials of the experiment. Also, during the article, specific aspects of the written speech were specifically discussed.

Key words: experimental description, written speech, quality, inspection, correction, improvement.

ОПИСАНИЕ И МАТЕРИАЛЫ ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация. В данной статье рассказывается об описании и материалах эксперимента. Также в ходе статьи конкретно обсуждались конкретные аспекты письменной речи.

Ключевые слова: описание эксперимента, письменная речь, качество, проверка, коррекция, улучшение.

Yozma nutqning mohiyatli chiqishi uchun material yig'ilgandan so'ng ularni sistemallashtirish, reja tuzish, ishni xomaki nushasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab, takomillashtirish va oqqa ko'cherish zarur. Yozma nutqning sifati fikrning mustaqil ravishda bayon etilishi bilan belgilanadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqidagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keying ishlarida bu kamchiliklariga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Yozma nutq murakkab jarayon bo'lib, ko'p vaqt mehnat talab qiladi. Bunday nutq davomida inson o'zini kuzatib boradi. Yozma nutq ko'nikmasining shakllanishida ilg'or innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish uchun berilgan har bir o'quv mashg'ulotining o'ziga xos qiziqarli va samarali bo'lishi yuqori natijaga erishishda xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirishda o'qish ko'nikmasining muhim ekanligi ham katta ahamiyatga ega. O'qish jarayonida o'qigan matnnini tushunib o'qish va unga yozma munosabat bildirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Yozma nutq grammatik va mazmun jihatdan to'g'ri

jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash, fikrni ixcham va izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Yozma nutqning murakkab tomoni yana shundaki, unda imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq xatolarga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi. So‘zlarni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish, bildirilgan fikrlar asosida zarur xulosa chiqarishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutqning me’yorlari o‘quvchilarda asta-sekin shakllanadi. Buning uchun 6-sinf ona tili darsliklarida matn yaratish, uning mavzusiga mos ma’lumotlarni berish va o‘z mustaqil fikrlarini izchil bayon etishga o‘rgatish hamda jumlanishi to‘g‘ri tuzish, so‘zlardan unumli foydalanish, ibora, epitet, sinonim, omonim, antonim, bo‘yoq dor so‘zlardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ham darkor. O‘zbekiston ko‘p millatlari va har xil shevalarga boy xalq. Shu sababli kichik bir hududda ham har xil shevani uchratish mumkin. Masalan, Samarqand viloyati Narpay tumani misolida ko‘rsak, Kattaqo‘rg‘on shahri atrofida o‘zlarini arablarning ajdodi hisoblovchi aholi shevasi boshqa tumanlardan keskin farq qiladi. Masalan, Ana u yerda so‘zi o‘rniga “ag‘ga, bag‘ga so‘zining ishlatilishi kuzatiladi. Oltio‘g‘il qishlog‘ida Nayman shevasida “y” harfi o‘rniga “j” harfi ko‘proq ishlatiladi. Masalan, Aytib yuboring o‘rniga “aytib jaring” ishlatiladi. Ayniqsa, o‘quvchi o‘rtasida I va e harfi talaffuzida sheva tufayli imlo xato qilish ko‘p uchraydi. Masalan, “ilon” so‘zini “Elon” yozishadi.¹ Bunday hollarni oldini olish maqsadida o‘quvchilarga ko‘proq amaliy mashq va topshiriqlar berilib, adabiy til me’yorlарini o‘rgatishga harakat qilmoq darkor. Quyidagi topshiriq bunga misol bo‘la oladi.

1-topshiriq. *Nuqtalar o‘rniga mos keladigan harflarni qo‘ying.* Xafa...ol, ...rnak, mumk...n, ...rganmoq, k...rsatdi, sha...ba, ta...bur, ma...sh, mu...llim, a...tomobil, g‘uv...lladi, chirs...lladi.

2-topshiriq.

Berilgan shevaga xos so‘zlarning izohini tanlang .

- | | |
|--------------------|-------------------|
| 1. Satil | a) buvi |
| 2. Inak | b) nimcha |
| 3. Momo | d) chovli |
| 4. Guppicha | e) yostiq |
| 5. Chakki | f) chelak |
| 6. Takyta | g) sigir |
| 7. Cho‘lpi | h) pochcha |

¹ O‘zbek xalq shevalaridan

8. Jizza**i) suzma**

Ona tili darslarida o‘quvchilarga shevadagi so‘zlarning adabiy tildagi muqobilini bilishi, qaysi o‘rinda qaysinisini ishlatishi kerakligini o‘rgatish maqsadida darslar davomida quyidagi topshiriqlarni berish mumkin. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, chet tilida yozish ko‘nikmasini shakllantirish GEFR talablaridan biri hisoblanib, har bir til o‘rganuvchi bu ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim. ***Yozish ko‘nikmasi quyidagi holatlar uchun juda muhim hisoblanadi:***

- kommunikativ ehtiyojlar tufayli (emayllar, rasmiy xatlar, tabrik kartalari ,
- formulyarlar, uy vazifalarini yozish kabi) -darsda kelib chiqadigan ehtiyojlar tufayli (uy vazifalari, testlar, grammatika va so‘z boyligi ustida ishlash uchun topshiriqlar , qaydlar qilish uchun);
- o‘rganishga oid psixologik tadqiqotlar tufayli (ko‘proq qabul kanallari orqali -- o‘rganish va bu orqali eslab qolishni rivojlantirish kabi) ;
- yozishda nimalarga e`tibor berish kerak: -yozishda leksika, sintaksis va rasmiyatchilik og‘zaki nutqqa qaraganda boshqacha bo‘ladi.
- tasvirlash imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi;
- qayta so‘rash imkoniyati mavjud emas; -gapishtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, yozish ko‘nikmasini ham egallaganlikni ko‘rsatmaydi;
- yozish ko‘nikmasi rejalashtirish bilan uzviy bog‘liq;
- yozish xatolarni to‘g‘rilash va qayta ishlash uchun kerak -yozish ko‘nikmasini shakllantirish orfografik , so‘z boyligi, pragmatika (murojaat) kabi masalalarda uchraydigan muammolarni hal qilishda yordam beradi;
- yozish sekin, avtomatlashmagan hisoblanadi. Yozish ko‘nikmasi haqida ko‘p bahslar yuritilishiga qaramay, ko‘p kitoblarda uni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarga yetarlicha e`tibor berilmadi. Til o‘rganishga mo‘ljallangan darsliklarda, asosan, eshitib tushunish hamda gapishtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarga juda katta e`tibor, o‘rin ajratiladi. Yozuv taxtasida esa dars jarayonida yozuvlarni aks ettirishning yana bir vositali hisoblanadi. Yozish ko‘nikmasi kerakli xabarlarni yetkazish, yozuv bilan amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni tartibli tashkil etish, fikrni bayon etish , fikrni o‘zgalarga bayon qilish, insonlar bilan o‘zaro munosabatga kirishish kabi hodisalar uchun juda muhim sanaladi. Ona tili darsliklarida yozish ko‘nikmasini shakllantirish uchun yetarlicha topshiriqlar berilmagan. Asosan, grammatik qoidalarni yod olishga qaratilgan mashq va topshiriqlar berilgan. Masalan, 6-sinf ona tili darsligidagi berilgan mashqlarda gaplarni ko‘chirish va morfologiya oida so‘zni aniqlash

topshirig‘i berilgan.² Bu esa o‘z –o‘zidan o‘quvchining fikrlash doirasini o‘stirishga, o‘qib tushunish va yozish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladigan hech qanday topshiriqni ko‘rmaymiz. Berilgan mashqlar haqiqiy filologlarni tarbiyalash uchun xizmat qiluvchi topshiriq sanaladi. Shuning uchun o‘quvchilarning o‘z fikrini to‘g‘ri, izchil va xatosiz bayon etolmaydi. Maktablarda darslar davomida o‘qituvchilar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish maqsadida bir necha mashg‘ulotlar o‘tkazadilar. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yozma nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o‘quvchilarning uyda, ko‘chada yoki sinfdan tashqari paytlarda turkman, tojik, rus (sheva) yoki boshqa tilda so‘zlashib, mактабда o‘zbek tilida o‘qishi ekanligi. Ota-onalar uyda farzandlarining nutqiga e’tibor bermasligidir. O‘quvchilar nutqida paydo bo‘layotgan bunday kamchiliklarni oldini olish uchun o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishga mo‘ljallangan ba’zi topshiriqlarni berishimiz zarur. Masalan:

- 1. Matn berib, berilgan matndan zarur o‘rinlarini ko‘chirib yozish.**
- 2. Matn mazmuniga mos reja tuzdirish.**
- 3. Matn mazmunini qisqartirib yozish.**
- 4. Matn mazmunini kengaytirib yozish.**
- 5. Berilgan savol va topshiriqlarga javob yozish.**
- 6. She`riy asarlar mazmunini hikoyaga aylantirish.**
- 7. Ilmiy uslubda berilgan matnni badiiy uslubga aylantirib yozish.**

Bunday topshiriqlar yozma nutqning rivojlantirishga va adabiy nutq me’yorlaridan unumli foydalanishga xizmat qiladi. Ona tili ta’limida o‘quvchilar savodxonligiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Quyida ana shu farqli holatlar haqida fikr yuritamiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida “gi qonunni qabul qildi. Hozirgacha hozirgi adabiy tilining kirill yozuvi me’yorlari 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan ‘O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari” ga tayanib kelgan bo‘lsa, lotin alifbosiga asoslangan yozuv me’yoriy imlo qoidalari esa 1995-yil 24- avgustda tasdiqlangan.” O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” ga tayanadi. Imlo qoidalari mukammal bilish va unga rioya qilib yozish har bir shaxs bilishi kerak bo‘lgan muhim masaladir. Har bir davlat o‘z ona tili va yozuviga ega. Jamiyatdagi kishilar o‘zlari yashayotgan joyning “Ona tilini yaxshi bilaman” – degan tushunchaga ega ekanliklari ham savodsiz bo‘lishga sabab bo‘lmoqda. Agar ingлиз bolasiga o‘z tilida yozdirsangiz, u ham o‘z tilida yozgan so‘zlarida xatoliklarga yo‘l qo‘yadi va aksincha, boshqa bir tilda, ya’ni o‘zi qiziqib o‘rganyotgan tilida xat yozdirsangiz, u xatosiz, savodli yozib beradi. Yoki o‘zbek bolasiga ingiliz tiliga xat yozishni aysangiz u ham

² 6-sinf Ona tili darsligi 20-32-betlar

ingiliz tilida xatosiz xat yozib beradi.Buning sababi oddiy, bola so‘zlarni mazmuni bilan birga o‘qilishi va yozilishini yod olgan. Biz axborot texnologiyalari davrida yashayapmiz. Bu esa o‘z navbatida ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.Har bir kishining qo‘lida gazeta,jurnal,kitob emas, balki telefon,planshet ko‘ramiz.Ba’zi oilalarda kichik yoshdagi bolaning ham qo‘lida kitob o‘rnida telefon.Telefondan to‘g‘ri foydalanuvchilar kitobni audio eshitishi mumkin, lekin ko‘z bilan ko‘rib o‘qimaydi. Kitobni kam mutolaa qilish ham savodsiz bo‘lishga sabab bo‘la oladi.Chunki bola kitob o‘qish jarayonida ko‘zi orqali so‘zlarning yozilishini o‘rganadi. Inson tashqi olamdan qabul qiladigan taassurotlarning to‘qson foizini odatda ko‘z analizatori orqali qabul qiladi. Shuningdek, inson miyasida obrazli xotira mana shu ko‘rgan narsalari orqali hosil qilinadi. Ko‘cha-kuyda, kundalik hayotda bozor rastalarida, axborot vositalarida berilayotgan reklama peshtaxtalaridagi yozuvar, ko‘cha va mahallaning nomlaridagi noto‘g‘ri yozuvar inson xotirasida avtomatik ravishda muhrlanadi. Bu ayniqsa, ko‘z shu narsaga qayta-qayta tushganda sodir bo‘ladi. O‘quvchi yozma nutq bilan shug‘ullangan paytda beixtiyor shu xatolarni takrorlaydi. Shuning uchun peshtaxtalardagi, reklama roliklaridagi ko‘cha nomlarini yozilishidagi mavjud imlo xatolariga katta e’tibor qaratish kerak. Bunday hollarni tezda bertaraf qilish kerak,chunki ko‘pchilikda so‘zning imlosi ko‘z xotirasi yordamida shakllanadi. Jamiyatda kishilarning turli xil fikrlashlari,farzandining ilm olishga emas, balki moddiy ehtiyojini qondirishga undashlari ham savodsiz bo‘lishga sabab bo‘lmoqda.Shaxs tarbiyasida ota-onalarning o‘z farzandlarining kelajagiga bee’tibor bo‘lishlari ,hayotda maqsadni to‘g‘ri qo‘ya olmasliklari achinarli holdir. Maktablarda darslar davomida o‘qituvchilar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish maqsadida bir necha mashg‘ulotlar o‘tkazadilar. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yozma nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o‘quvchilarning uyda, ko‘chada yoki sinfdan tashqari paytlarda turkman, tojik, rus (sheva) yoki boshqa tilda so‘zlashib, mактабда o‘zbek tilida oqishi ekanligi.Ota-onalar uyda farzandlarining nutqiga e’tibor bermasligidir. O‘quvchilarni so‘zdan to‘g‘ri foydalanishl va so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llashni bilishi uchun 6-sinf o‘quvchilariga quyidagi topshiriqni berish, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish mumkin.

1-Topshiriq: Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos keladigan so‘zni tanlang. 1.Toma – toma ... (ko‘l, daryo, ariq) bo‘lur.

2. (Yer, zamin, tuproq) haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.
3. Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ... (ganj, boylik, xazina) ila.
4. Yomon do‘s... (soya, ko‘lanka, aks) ga o‘xshaydi.
5. Mehmon kelar eshikdan... (nasiba, risq, ulush) kelar teshikdan.

Topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi oshadi,o‘qib tushunish orqali

so‘zni to‘g‘ri, o‘rinli qo‘llashni, gap mazmuniga mos keladigan, ya`ni badiiy uslub yoki so‘zlashuv uslubiga mos so‘zni tanlashga o‘rganadi. Xullas, yozma nutq madaniyatini o‘quvchilarda shakllantirishda nafaqat ona tili va adabiyot o‘qituvchilar, balki har bir o‘qituvchi, oila, mahalla bunday holatlarga e’tiborli bo‘lish bugungi kunning asosiy talabi ekanligini unutmasligimiz lozim. Zero, ma’rifatparvar adib Zokirjon Furqat “Maning maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa, ilm-u savodim” deya ta’riflaganidek, har birimiz yozma nutq savodxonligini oshirishga harakat qilishimiz zarur. Shuning uchun, oila,mahalla va maktab hamkorligida yosh avlodning nutq madaniyatini shakllantirishga astoyidil kirishish darkor.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Kuch adolatda gazetasi. №:47. 2016 yil 8 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2017.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha” Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi 2017-yil 7-fevraldagagi farmoni.